



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari

4-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

| | |
|--|-------|
| <i>Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR | 12-17 |
| <i>Qurbanov Xurshid Raupovich</i> O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN "MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI | 18-22 |
| <i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI | 23-28 |
| <i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965)..... | 29-35 |
| <i>Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR | 36-39 |
| <i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI) | 40-50 |
| <i>Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI | 51-54 |
| <i>Sodiqova Yulduzzon Maxamat qizi</i> O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2024 yy) | 55-59 |
| <i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXELOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI | 60-64 |
| <i>Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA) | 65-69 |
| <i>Mardiyeva Guzel Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI | 70-75 |
| <i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR | 76-80 |

| | |
|--|-------|
| <i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i> | |
| XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING | |
| IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI | 81-87 |
| <i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i> | |
| O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA | |
| IPAKCHILIKNING O'RNI | 88-92 |
| <i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i> | |
| O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI | 93-99 |

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

| | |
|--|---------|
| <i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i> | |
| BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI | |
| RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI | 100-116 |
| <i>Юлдашева Надира Викторовна</i> | |
| «ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ: | |
| ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА»..... | 117-123 |
| <i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i> | |
| ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH | 124-128 |
| <i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i> | |
| TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI | |
| FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH | 129-135 |
| <i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i> | |
| SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI | |
| VA IQTISODIY RIVOJLANISHI..... | 136-145 |
| <i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i> | |
| XORIJY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA | |
| KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI T AHLILI | |
| (ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA) | 146-159 |
| <i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i> | |
| O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA | |
| INSON KAPITALINING TA'SIRI | 160-164 |
| <i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i> | |
| “QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH | 165-169 |

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

| | |
|---|---------|
| <i>Komilov Ro'zi Rabiyevich</i> | |
| OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY | |
| OMILLARNING FALSAFIY T AHLILI | 170-172 |
| <i>Хакимов Эркин</i> | |
| ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ | |
| МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ | 173-180 |
| <i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i> | |
| SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI | 181-185 |
| <i>Karimov Yo'lqosh Ergashevich</i> | |
| TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI | 186-191 |

| | |
|--|---------|
| <i>Агзамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i> | |
| О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ)..... | 192-195 |
| <i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> | |
| ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 197-204 |
| <i>Evatov Salimjon</i> | |
| MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI | 205-209 |
| <i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i> | |
| ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI | 210-213 |
| <i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i> | |
| IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI | 214-217 |
| <i>Kunisheva Nadira Julianovna</i> | |
| "IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI | 218-223 |
| <i>Eshpulatov Inoyat</i> | |
| FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT | 224-231 |
| 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI | |
| <i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i> | |
| O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI | 232-236 |
| <i>Алиева Эльвина Аметовна</i> | |
| ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ | 237-243 |
| <i>Usmanova Sevara</i> | |
| INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA | 244-251 |
| <i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i> | |
| MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI..... | 252-260 |
| <i>Daminova Rahima Malikovna</i> | |
| ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI..... | 261-266 |
| <i>Yusupov Asror</i> | |
| PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV | 267-271 |
| <i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i> | |
| VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI | 272-276 |
| <i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i> | |
| COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION | 277-281 |
| <i>Sirojiddinova Shakhrribonu</i> | |
| THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS | 282-285 |

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

| | |
|--|---------|
| <i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> | |
| DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 286-292 |
| <i>Wang Cong</i> | |
| RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION | 293-300 |
| <i>Ли Адик</i> | |
| К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ | 301-310 |
| <i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i> | |
| FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI | 311-315 |
| <i>Axmatov Olimjon Odilovich</i> | |
| "KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI" | 316-322 |
| <i>Xatamov To'lqin Tojiddinovich</i> | |
| KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI | 323-329 |
| <i>Kuchimova Shaxlo</i> | |
| VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI | 330-337 |
| <i>O'ranova Dilshoda Adhamovna</i> | |
| OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI | 338-347 |
| <i>Geng Zhimin</i> | |
| RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT..... | 348-351 |
| <i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i> | |
| ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR | 352-357 |
| <i>Тулаганов Элмурод</i> | |
| ВОПРОСЫ ПРОТИВODEЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ | 358-367 |
| <i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i> | |
| DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI | 368-374 |
| <i>Abbosov Mirluton Mirsharof o'g'li</i> | |
| JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI | 375-382 |

| | |
|--|---------|
| <i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i> | |
| DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR | 383-392 |
| <i>Kamilov Oybek</i> | |
| O'ZBEKISTONNING MIGRATSIIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI | 393-402 |
| <i>Aбророва Камола Сайдмухторовна</i> | |
| ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ | 403-410 |
| <i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i> | |
| RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) | 411-418 |
| <i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i> | |
| "HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'iy INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALAR" | 419-427 |
| <i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i> | |
| INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR | 428-432 |
| <i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i> | |
| VALYUTA QIMMATLIKARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI | 433-441 |
| <i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i> | |
| KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI | 442-448 |
| <i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i> | |
| YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI | 449-457 |
| <i>Mansurov Arslon Askarovich</i> | |
| "IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI | 458-463 |
| 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI | |
| <i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> | |
| "JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI | 464-470 |
| <i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i> | |
| EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR | 471-475 |
| <i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i> | |
| BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR | 476-481 |

| | |
|---|---------|
| <i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> | |
| ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI..... | 482-485 |
| <i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i> | |
| FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI | 486-491 |
| <i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i> | |
| TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI | 492-496 |
| <i>Раббимова Нодира Таштемировна</i> | |
| ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ | 497-501 |

Received: 16 March 2025

Accepted: 5 April 2025

Published: 15 April 2025

Article / Original Paper

LEGAL STATUS OF THE "SOCIAL STATE" PRINCIPLE IN THE CONDITIONS OF NEW UZBEKISTAN AND COMPARATIVE ANALYSIS WITH INTERNATIONAL EXPERIENCE

Mansurov Arslon Askarovich,

Captain,

Expert at the Forensic Expertise Center of the Main Internal Affairs

Department of Tashkent City

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of the concept of "social state" and the features of its manifestation in developed European countries (Germany, France, Scandinavia, etc.). It also reveals the legal status of this principle in the conditions of New Uzbekistan and shows the strengthening of the idea of "social state" in the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. The practical results of the reforms being implemented in social policy - measures to reduce poverty, provide social protection to the population, and achieve quality education and healthcare (the establishment of the National Agency for Social Protection, the introduction of new programs and digital registers) are analyzed. The legal foundations of building a social state on the basis of presidential decrees and resolutions are analyzed, and scientific conclusions and proposals are made in comparison with international experience.

Keywords: social state; social rights; social reforms; Constitution; human dignity; public interest; poverty reduction; decent living conditions; Strategy "Uzbekistan - 2030"; National Agency for Social Protection.

"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI

Mansurov Arslon Askarovich

Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi Ekspert-kriminalistika markazi eksperti,
kapitan

Annotatsiya. Ushbu maqolada "ijtimoiy davlat" tushunchasining nazariy asoslari va rivojlangan Yevropa davlatlaridagi (Germaniya, Fransiya, Skandinaviya h.k.) namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Yangi O'zbekiston sharoitida mazkur tamoyilning huquqiy maqomi ochib berilib, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "ijtimoiy davlat" g'oyasining mustahkamlanishi ko'rsatiladi. Ijtimoiy siyosatida amalga oshirilayotgan islohotlar – kambag'allikni qisqartirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, sifatli ta'l'im va tibbiyotga erishish borasidagi chora-tadbirlar (Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilishi, yangi dastur va raqamli reyestrlar joriy etilishi) bo'yicha amaliy natijalar tahlil qilinadi. Prezident farmon va qarorlari negizida ijtimoiy davlat barpo etishning huquqiy asoslari tahlil qilinib, xalqaro tajriba bilan taqqoslangan holda ilmiy xulosalar va takliflар bildiriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat; ijtimoiy huquqlar; ijtimoiy islohotlar; Konstitutsiya; inson qadri; xalq manfaati; kambag'allikni qisqartirish; munosib turmush sharoiti; "O'zbekiston – 2030" strategiyasi; Ijtimoiy himoya milliy agentligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N68>

Kirish. Davlatning o'z fuqarolari farovonligini ta'minlashga qaratilgan siyosat yuritishi, jamiyatda ijtimoiyadolat va barqarorlikka erishish choralarini ko'rishi bugungi kun talabi hisoblanadi. Shu ma'noda davlatning ijtimoiy davlat sifatida faoliyat yuritishi konsepsiysi

dolzARB ahamiyat kasb etgan. Nazariy jihatdan, ijtimoiy davlat (welfare state) deganda shunday davlat modeli tushuniladiki, unda davlat siyosati moddiy ne'matlar va daromadlarni qayta taqsimlash orqali jamiyatda ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini ta'minlaydi hamda har bir fuqaroga munosib hayot darajasiga erishishi uchun sharoit yaratadi[1]. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy davlat fuqarolarning minimal turmush darajasini kafolatlash, kam ta'minlangan va ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, jamiyatdagi ijtimoiy tafovutlarni yumshatish uchun mas'ul bo'lgan davlatdir. Ijtimoiy davlat konsepsiysi ilk bor XIX asrda Germaniyada ilgari surilgan bo'lib, Otto fon Bismark ijtimoiy sug'urta islohotlari orqali uni amalga tatbiq etishga harakat qilgani ma'lum. II jahon urushida keyin esa barcha rivojlangan mamlakatlar siyosiy dasturida muhim o'rIN egalladi va ko'plab davlatlar Konstitutsiyalarida o'zlarini ijtimoiy davlat deb e'lon qildi.

Birinchidan, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, turli davatlarda ijtimoiy davlat tamoyilining namoyon bo'lishi milliy modellarga qarab farq qiladi. Yevropa mamlakatlari dunyodagi eng rivojlangan ijtimoiy davlat modellarini amalga oshirib kelmoqda. Masalan, Germaniya va Fransiya kabi mamlakatlarda konservativ (korporativ) ijtimoiy davlat modeli shakllangan bo'lib, bunda davlat ijtimoiy ta'minot va sug'urta tizimlari orqali aholini keng qamrovda himoya qiladi. Skandinaviya davlatlarida (Shvetsiya, Daniya, Norvegiya, Finlyandiya) esa ijtimoiy-demokratik model amal qiladi – bunday tizimda yuksak soliqlar evaziga barcha fuqarolarga teng va yuqori darajada ijtimoiy xizmatlar (universal tibbiy xizmat, bepul ta'lim, saxovatli nafaqalar) ko'rsatilishi ta'minlanadi. Natijada bu davatlarda hayot darajasi va ijtimoiy himoya kafolatlari juda yuqori.

Masalan, Fransiya hukumati o'z yalpi ichki mahsulotining uchdan bir qismga yaqinini ijtimoiy ehtiyojlarga sarflashi bilan OECD davatlari orasida peshqadamdir (2019-yilda davlat byudjeti xarajatlarining taqriban 33% ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan)[2]. Finlyandiyada bu ko'rsatkich 29% atrofida bo'lsa, Daniya, Shvetsiya va Norvegiya kabi Skandinaviya mamlakatlarida ham davlat xarajatlarining kamida 25% ijtimoiy ta'minotga sarflanadi. Ispaniya, Italiya, Germaniya, Belgiya kabi davlatlar ham ijtimoiy sohani moliyalashtirishga katta ustuvorlik berib keladi. Bunday ma'lumotlar Yevropada ijtimoiy davlat tamoyili nafaqat qonuniy asosda, balki amaliy jarayonda ham keng hayotga tatbiq etilib, boshqa davlatlar uchun namunali model yaratilganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, Konstitutsiyada ijtimoiy davlat tamoyilining mustahkamlanishi sifatida, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning ilk yillaridan sotsial sohani rivojlantirishga ahamiyat berib kelgan bo'lsa-da, mamlakatimizning ijtimoiy davlat sifatidagi konstitutsiyaviy maqomi oldingi tahrirdagi Asosiy Qonunda aniq bayon etilmagan edi. Yangi davr islohotlari natijasida, xalq xohish-irodasi inobatga olingan holda 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ushbu bosh tamoyil birinchi marta rasman mustahkamlandi. Yangi Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi qat'iy belgilab qo'yildi[3]. Ya'ni davlatimiz endilikda qonunchilikda rasman ijtimoiy davlat deb e'tirof etilgan.

Shu bilan birga, Konstitutsiyaning mazmuni ham ijtimoiy kafolatlar bo'yicha yangi normalar bilan boyitildi. Yangilangan Konstitutsiyada davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatları doirasi sezilarli ravishda kengaydi. Jumladan, Konstitutsiyaning tegishli moddalarida davlat zimmasiga aholi bandligini ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish va kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'rish majburiyati yuklatildi [4]. Fuqarolarning mehnat

va ijtimoiy ta'minot huquqlari kafolati kuchaytirilib, har bir shaxsga qonun bilan belgilangan eng kam oylik ish haqidan kam bo'limgan miqdorda adolatli haq olish huquqi va har bir inson qarilik, nogironlik, ishsizlik yoki boquvchisini yo'qtganda davlatning ijtimoiy ta'minotidan foydalanish huquqiga ega ekani mustahkamlandi.

Uchinchidan, pensiya va nafaqalar miqdori belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emasligi konstitutsiya darajasiga ko'tarildi. Davlat fuqarolarga belgilangan kafolatlangan minimal tibbiy yordamni bepul ko'rsatishi shart etib belgilandi [5], shuningdek aholining ehtiyojmand qatlamlarini uy-joy bilan ta'minlash, yollanib ishlovchi xodimlarning har yillik haq to'lanadigan mehnat ta'tilidan foydalanish huquqini ta'minlash kabi qoidalar kiritildi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich kasbiy ta'limni kafolatlashini, imkoniyati cheklangan bolalar uchun inkiyuziv ta'lim tashkil etish majburiyatini o'z zimmasiga oldi. Shu tariqa, yangi Konstitutsiyada insonning asosiy ijtimoiy huquqlariga oid bir qator mustahkam kafolatlar konstitutsiyaviy darajaga ko'tarildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartishlar natijasida davlatning ijtimoiy majburiyatlari bilan bog'liq normalar soni avvalgisiga nisbatan qariyb uch baravarga ortadi, bu esa "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat" degan tamoyil hujjatda to'la aks etganini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, Asosiy Qonunga kiritilgan mazkur o'zgartish va qo'shimchalar Yangi O'zbekistonni barpo etishda ilgari surilgan "Inson qadrini ulug'lash" g'oyasining huquqiy ifodasi hisoblanadi [6]. Konstitutsiyaviy islohotlar orqali har bir fuqaroning ijtimoiy huquqlarini ta'minlash davlatning oliy maqsadlaridan biri sifatida belgilandi. Mazkur o'zgarishlar Yangi O'zbekiston sharoitida davlat hokimiyatining strategik yo'nalishi aynan ijtimoiy davlat qurish ekanligini ko'rsatib, xalqimiz farovonligini oshirishga qaratilganini ta'kidlash mumkin.

Beshinchidan, Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosat islohotlari va amaliy tatbiq etishi deganda, O'zbekistonda keyingi yillarda ijtimoiy siyosatni yuksaltirish, aholining turmush sifati va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan "Inson qadri uchun" degan tamoyil davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilandi. Avvalo, kam ta'minlangan, ehtiyojmand qatlamlarni manzilli qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir necha yangi mexanizmlar joriy etildi. "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" kabi ro'yxatlar orqali ehtiyojmand oilalar va shaxslarni aniqlab, ularga moddiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishning yangi tizimi joriy qilindi. Shuningdek, "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz", "Obod mahalla", "Obod qishloq" kabi dasturlar orqali aholining turli qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va turmush sharoitini yaxshilash chorralari ko'rildi. Mahalliy darajada "mahallabay" va "xonardonbay" ishlash usullari joriy qilinib, har bir mahalla yoki oilani individual o'rganish asosida kambag'allikni kamaytirishga intilish kuchaydi. Bu chora-tadbirlar xalqimizga xos mehr-oqibat va o'zaro yordam an'analarini zamonaviy davlat siyosatini bilan uyg'unlashtirgan holda amalga oshirildi. Natijada, so'nggi yillarda davlat byudjeti hisobidan ajratilayotgan ijtimoiy nafaqalar hajmi keskin oshdi – masalan, 2016-yildan 2022-yilgacha ijtimoiy nafaqalarga sarflangan mablag'lar 10 baravarga oshirilib, 11 trillion so'mga yetkazildi, ijtimoiy nafaqa oluvchi oilalar soni esa 5 baravarga ko'payib 2,2 milliondan oshdi. 2024-yilning birinchi choragida ham davlat byudjeti xarajatlarining 47% dan ortig'i ijtimoiy sohalarga yo'naltirildi, bu O'zbekistonni ijtimoiy davlat sari olib borayotgan yo'ldagi amaldagi ishlarning yana bir tasdig'idir.

Oltinchidan, ijtimoiy sohada boshqaruv tizimini zamonaviylashtirish maqsadida raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Xususan, 2021-yildan boshlab Ijtimoiy himoyaning yagona

reyestri shakllantirilib, ehtiyojmand fuqarolarga davlat nafaqalarini avtomatik tarzda elektron tizim orqali tayinlash amaliyoti yo'nga qo'yildi. Bu nafaqat oshkoralikni ta'minlash, balki har bir muhtoj oilaga uning real ehtiyojlari asosida tezkor yordam berish imkonini berdi. Masalan, 2023-yilning birinchi yarim yilligida ushbu elektron tizim orqali 278,4 milliard so'mlik "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi" avtomat tarzda tayinlanib to'lab berildi. Shuningdek, xususiy sektorda band bo'lgan ayollarga homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalarni arizasiz, proaktiv usulda tayinlash va to'lash tizimi ham ishga tushirildi. Bunday raqamlashtirilgan yondashuv orqali ijtimoiy yordam manzilligi va samaradorligi oshdi[7].

Ijtimoiy himoyaga muhtoj alohida guruhlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi tashabbuslar ham amalga oshirilmoqda. Masalan, yoshlar siyosati doirasida Prezident Sh.Mirziyoyev topshirig'i bilan og'ir sharoitga tushib qolgan, uy-joyga muhtoj qizlar uchun maxsus ijtimoiy turar-joylar qurish dasturi boshlandi. Unga muvofiq, bunday ehtiyojmand xotin-qizlar uchun bir xonali uylar qurilib, ular 3-yil muddatgacha ishga joylashib mustaqil hayotga qadam qo'yguncha bepul yashash imkoniyati yaratiladi[8]. Shuningdek, sog'lig'i tufayli ishga chiqolmaydigan qizlarni masofaviy ish bilan ta'minlash, bolali talaba-qizlarga masofaviy ta'lim olish sharoitini yaratish choralar ko'rilmoxda. Bunday choralar yosh avlod va ayollarni har tomonlama himoyalash orqali ijtimoiy davlat tamoyillarini amaliy ro'yobga chiqarish yo'lidagi sa'y-harakatlardir.

Yettinchidan, ijtimoiy sohadagi yana bir ustuvor yo'nalish – bu ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish. Keyingi yillarda O'zbekistonda uzlusiz ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta'lim qamrovi 2017-yillardagi 27–30% lardan 2023-yilga kelib 67% ga yetdi, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darjasasi 9% dan 38% ga oshdi. Davlat byudjeti hisobidan sog'liqni saqlash tarmog'iga ajratilayotgan mablag' 2017-yilgi 7,3 trln so'mdan 2023-yilda 24,7 trln so'mgacha ko'paydi. Bu ko'rsatkichlar ta'lim va tibbiyot sohalariga investitsiya orqali xalqimiz turmush sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar samarasini hisoblanadi.

Sakkizinchidan, Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy davlat qurish g'oyasini amalga oshirish uchun zarur huquqiy baza bosqichma-bosqich yaratilmoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, eng avvalo Konstitutsiya darajasida ijtimoiy davlat tamoyilini mustahkamlovchi normalar qabul qilindi. Shuningdek, sohaviy qonunchilik va me'yoriy hujjatlar ham mazkur tamoyilga mos ravishda takomillashtirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yilda nashr etilgan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobida ham "O'zbekiston – ijtimoiy davlat" degan g'oyani ro'yobga chiqarish uchun ustuvor vazifalar belgilangan bo'lib, aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish, sifatli tibbiy xizmat va ta'lim bilan qamrab olish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish kabi strategik yo'nalishlar aniq bayon etilgan[9]. Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida so'nggi yillarda qator muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

2021-yil 21-oktyabrdagi Vazirlar Mahkamasining 654-sod qarori bilan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari belgilandi. Unga muvofiq, ijtimoiy himoya sohasini raqamlashtirish, yagona ma'lumotlar bazasini yaratish, nafaqa tayinlash mezonlariniadolatli va shaffof qilish vazifalari qo'yilgan. Natijada, yuqorida ta'kidlangan Ijtimoiy himoya yagona reyestrining joriy etilishi va proaktiv xizmatlar ko'rsatish kabi yangiliklar aynan ushbu qaror doirasida amalga oshirildi.

To'qqizinchidan, eng muhim qadamlardan biri — davlat ijtimoiy xizmati tizimini institutsional jihatdan mustahkamlashdir. 2023-yil 1-iyunda Prezidentning PF-82-son Farmoni imzolanib, Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda har bir tuman (shahar)da "Inson" ijtimoiy xizmat markazlari tarkibida tuzildi [10]. Mazkur yangi agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'ul etib belgilandi. Shuningdek, mamlakat miqyosida birinchi marta O'zbekiston aholisini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi qabul qilinib, ijtimoiy himoya sohasini uzoq muddatda rivojlantirish rejasiga tasdiqlandi. Unga muvofiq, mehnatga layoqatli aholini ham ijtimoiy sug'urta tizimi orqali qamrab olish, davlat ijtimoiy ta'minotidan tashqari holatlar uchun majburiy ijtimoiy sug'urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi. Shuningdek, ijtimoiy yordam dasturlarini takomillashtirib borish, nafaqa tayinlash mezonlarini doimiy ravishda adolatlitashtirish vazifalari qo'yildi.

O'ninchidan, ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari sifatida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, voyaga yetmagan bolalarni himoya qilish, xotin-qizlarni himoya qilish, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalarga yordam, yoshlar va yakka yolg'iz keksalarni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlar belgilandi. Ko'rinish turibdiki, yangi tashkil etilgan tuzilma orqali davlat ijtimoiy siyosati yanada tizimli va maqsadli asosga ko'chmoqda.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda qator qonun hujjatlari orqali aholini ijtimoiy muhofaza qilishni yaxshilashga doir islohotlar mustahkamlandi. Masalan, 2012-yilda Mehnat Kodeksida xalqaro standartlarga mos ravishda ishchilarining ijtimoiy huquqlari kafolatlari kuchaytirildi [11]. 2020–2021-yillarda pandemiya sharoitida qabul qilingan vaqtinchalik qarorlar orqali esa iqtisodiy qiyinchilikka uchragan aholi va biznes subyektlariga moliyaviy yordam va imtiyozlar berildi – bu ham ijtimoiy davlat tamoyilining krizis sharoitidagi namunasi sifatida qayd etiladi.

Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy davlat tamoyillari tizimli ravishda huquqiy asoslantirilib, amaliy hayotga izchil tatbiq etilayotgani yuqorida tahlillardan ko'rindi. Ilgari Konstitutsiyada nominal tarzda e'tirof etilmagan mazkur g'oya endilikda Asosiy Qonunda mustahkamlandi va uni ro'yobga chiqarishga qaratilgan davlat siyosatining barcha yo'nalishlarida sezilarli o'zgarish va natijalar kuzatilmoqda. Ijtimoiy sohadagi xarajatlar keskin oshdi, aholining eng muhtoj toifalarini qo'llab-quvvatlash uchun yangi mexanizmlar joriy etildi va tegishli institutsional tuzilmalar – agentlik va markazlar tashkil etildi. Bu choralar natijasida aholining keng qatlami o'zgarishlarning ijobiylarini his eta boshlagani, kambag'allik darajasi pasayayotgani, kishilarning davlatga ishonchi mustahkamlanayotganini sotsiologik kuzatuvlar tasdiqlamoqda.

O'n birinchidan, ilmiy-amaliy tahlil shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy davlat barpo etish vazifasini to'laqonli amalga oshirish uchun xalqaro tajriba bilan taqqoslama o'rganish muhimdir. Yevropa davlatlarining turli modellarda erishgan yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish orqali biz o'zimiz uchun eng mos yo'lni belgilashimiz mumkin.

Masalan, Skandinaviya modelining afzalligi – farovonlik va tenglikka erishish bo'lsa, kamchiligi – yuqori soliq yuki ekanligi ma'lum. Anglosakson (liberal) model afzalligi – bozor iqtisodiyotining drayver bo'lishi, kamchiligi – yuqori darajadagi tengsizlik va kambag'allik o'choqlarining saqlanib qolishi. O'zbekiston uchun o'ziga xos aralash model shakllanib

bormoqda, u bozor iqtisodiyoti erkinliklarini saqlagan holda davlatning faol ijtimoiy ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. Bu modelni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi takliflar muvofiq bo'ladi: birinchidan, ijtimoiy davlat tamoyillarini moliyaviy ta'minlashda davlat byudjeti barqarorligini uzoq muddatga hisobga olib harakat qilish zarur.

Iqtisodiy o'sish sur'atlari va soliq islohotlari orqali ijtimoiy xarajatlar uchun daromad bazasini kengaytirish lozim. Ikkinchidan, majburiy ijtimoiy sug'urta tizimini joriy etish va taraqqiy ettirish orqali davlat byudjetiga tushadigan og'irlikni qisman xususiy sektor va fuqarolar o'rtasida taqsimlash mumkin – bunda biznes va shaxslar o'z kelajagi uchun javobgarlikni his etgan holda umumiy farovonlikka hissa qo'shishadi. Uchinchidan, ijtimoiy dasturlarni bajarilishini samarali nazorat qilish va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik ta'minlanishi shart. Raqamli texnologiyalar va ochiqlik asosida hamma uchun teng imkoniyat yaratish, mansabdar shaxslar hisobdorligini oshirish davom ettirilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonning "ijtimoiy davlat" tamoyiliga asoslangan taraqqiyot yo'li xalq farovonligini oshirishga qaratilgan tarixiy qadamdir. Bu yo'lda huquqiy baza va amaliy harakatlar uyg'unligi ta'minlanayotgani e'tiborga molik. Davlat va jamiyat birgalikda ish olib borib, har bir fuqaro turmush farovonligini his etadigan, hech kim e'tibordan chetda qolmaydigan adolatli ijtimoiy tuzumni barpo etishi mumkin. Xalqaro tajribadan samarali foydalangan holda va milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda, O'zbekistonning kelgusi yillarda haqiqiy ma'nodagi yuksak ijtimoiy davlat sifatida dunyoda e'tirof etilishiga to'la asos bor. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizning barqaror va adolatli rivojlanishini ta'minlab, xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ijtimoiy davlat atamsiga xalqaro huquqiy sharh. Elektron manba: https://ru.wikipedia.org/wiki/Sotsialnoye_gosudarstvo
2. These countries spend the most, and the least, on social benefits. Global Cooperation. Feb 10, 2021 Elektron manba: <https://www.weforum.org/stories/2021/02/social-spending-highest-lowest-country-comparison-oecd-france-economics-politics-welfare/#>
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri, 2023-yil 30-aprel).
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri, 2023-yil 30-aprel).
5. O'zbekiston – ijtimoiy davlat". Elektron manba: https://constitution.uz/uz/pages/broshura_ijtimoiy_davlat
6. Yangi O'zbekiston — ijtimoiy davlat. Elektron manba: <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston---ijtimoiy-davlat>
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.10.2021-yildagi 654-sonli "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
8. Og'ir sharoitga tushib qolgan uy-joyga muhtoj qizlar uchun 1 xonali ijtimoiy uylar quriladi. Elektron manba: <https://kun.uz/36471545?q=%2Fuz%2F36471545#>
9. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent 2023-yil. 440 bet
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.06.2023-yildagi PF-82-sonli "Ahliga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Elektron manba: <https://www.lex.uz/docs/6257288>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).